

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PARPIYEV MUXAMMADJON TOLIBOVICH

RENESSANS FENOMENINING IJTIMOYIY-FALSAFIY MOHIYATI

09.00.04 — Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

NAMANGAN – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich

Renessans fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyati.....3

Парпиев Мухаммаджан Талибович

Социально-философская сущность феномена Ренессанс.....28

Parpiyev Mukhammadjon Talibovich

The socio-philosophical essence of the Renaissance phenomenon..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published work 60

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.04.2021.F.76.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc) ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PARPIYEV MUXAMADJON TOLIBOVICH

RENESSANS FENOMENINING IJTIMOYIY-FALSAFIY MOHIYATI

09.00.04 — Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

NAMANGAN – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Fal179 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Egamberdiyev Azizbek Abdumalikovich
falsafa fanlari doktori(DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Nazarov Qiyomiddin Normirzayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Xakimov Nazar Xakimovich
falsafa fanlari doktori, professor

Zamilova Rimma Ramilevna
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengash asosidagi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi Bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (99869)227-29-81)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.T.Jo‘rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Q.O.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.I.Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ro‘y berayotgan hozirgi ijtimoiy muammolarni hal etish va barqaror taraqqiyotni ta‘minlashda Renessans fenomeni alohida ahamiyat va zaruratga ega. Bu hodisa tarixiy jihatdan inson tafakkuri, ma‘naviyati, ilmiy-ijtimoiy jarayonlarga qayta ruh va mazmun bag‘ishlagan madaniy-intellektual uyg‘onish davri sifatida tanilgan. Bugungi kundagi global muammolar – ijtimoiy tengsizlik, bilimsizlik, mafkuraviy bo‘shliq, tabiatning ifloslanishi, axloqiy inqiroz, yoshlar o‘rtasida ma‘naviy bo‘shliq kabi murakkab holatlar fonida Renessans g‘oyalari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Eng avvalo, Renessans ta‘lim va ilm-fanni jamiyatning asosiy poydevoriga aylantiradi. Uning ilk bosqichlarida ham, masalan, Yevropa Uyg‘onish davrida, jamiyatning taraqqiyoti inson aqlining erkinligi va tanqidiy fikrlash qobiliyati bilan bog‘liqligi g‘oyasini ilgari surgan. Hozirgi kundagi axborot jamiyatida ham aynan tanqidiy fikrlash va ilmiy bilimlar insonlarni manipulyatsiya va destruktiv mafkuralardan himoya qilishda muhim vositaga aylanmoqda. Renessans ruhidagi ta‘lim islohotlari barqaror taraqqiyot uchun savodli, ijtimoiy javobgar, ma‘naviy barkamol shaxslarni etishtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Dunyoda kuzatilayotgan hozirgi madaniy qarama-qarshiliklar va radikalizmni engish, sivilizatsiyalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirishda ham Renessans qarashlari muhim bo‘lib, u bag‘rikeng, ochiq va muloqotga asoslangan dunyoqarashni targ‘ib etadi. Renessans insonparvarlik va gumanizm tamoyillariga asoslanadi. Bugungi jahondagi qochqinlar muammosi, irqiy va etnik adovatlar, jinsiy tengsizlik va kamsitishlar inson qadrini toptayotgan muammolardir. Renessans insonni borliq markaziga qo‘yadi, uning aqli, huquqi, erki va erkin ijodini e‘tirof etadi. Shu jihatdan, XXI asr Renessansi – bu inson qadrini ulug‘lash va uni barcha siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning markaziy nuqtasi sifatida ko‘rish g‘oyasini hayotga tatbiq etishdir. Renessans madaniy muloqot va sivilizatsion bag‘rikenglik g‘oyasini ilgari suradi. Insoniyat tarixidagi barcha rivojlanish davrlari turli madaniyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va ta‘sir bilan ro‘y bergan. Masalan, Arab Nahdasida G‘arbning ilmiy g‘oyalari Sharq falsafasi bilan uyg‘unlashgan, Yaponiyaning Meidzi inqilobida G‘arb ta‘lim va texnologiyasi milliy qadriyatlar bilan sintezlangan.

O‘zbekistonda Uchinchi Renessansning o‘zagi axloq va ma‘naviyat, jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri esa ma‘rifat sifatida qaralmoqda. Zamonaviy jamiyatda korrupsiya, ma‘naviy inqiroz, yoshlar o‘rtasida qonuniylikka nisbatan hurmatning susayishi – barcha bu muammolarning zamirida ma‘rifatsizlik yotadi. Renessans ruhidagi ma‘rifat insonda faqat bilim emas, balki mas‘uliyat va ruhiy etuklikni ham shakllantiradi. Bu ma‘naviy qayta uyg‘onish orqali inson o‘zini jamiyat oldidagi burchi va javobgarligini anglaydi. Zero, "...insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma‘naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi. O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi

va ongida ana shunday ma'naviyat shu'lasini porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib turishi zarur"¹. Barqaror taraqqiyot faqat iqtisodiy o'sish bilan emas, balki inson kapitali, ma'naviy muhit va ijtimoiy barqarorlik bilan belgilanadi. BMTning barqaror rivojlanish maqsadlarida ham ta'lim, tenglik, sog'lom muhit, tinchlik va adolat ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Renessans esa, aynan shu maqsadlarni amalga oshirishga hissa qo'sha oladigan keng qamrovli madaniy-ma'rifiy tafakkur shaklidir. U aql va qalb uyg'onishiga turtki beruvchi ruhiy harakat bo'lib, insoniyatning har tomonlama barqaror rivojini ta'minlaydi. Renessans – bu tarixiy bosqich emas, balki ijtimoiy-ma'naviy uyg'onish, axloqiy yuksalish va aqliy taraqqiyotning zamonaviy modelidir. U hozirgi dunyodagi muammolarga faqat texnik echimlar emas, balki ma'naviy-farosatli yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Jahon miqyosidagi barqaror taraqqiyot uchun bugun O'zbekiston "Uchinchi Renessans" davrini boshdan kechirishi kerak va bu davrda inson va insoniylik ustuvor qadriyat sifatida qayta kashf etilishi, ma'naviy va madaniy ruhiyat jamiyatning asosiy tayanchiga aylanishi lozim. Ana shundagina insoniyat haqiqiy rivoj va barqarorlik sari harakat qila oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-5040-son Qarori, 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 340-son "Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi, 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli Qarori va mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 266.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi².

Dunyoning etakchi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida Renessans fenomeni bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar nafaqat tarixiy yoki madaniy muhitni o'rganishga, balki inson aqli, ijtimoiy taraqqiyot, axloq, mafkuraviy qayta uyg'onish va inson qadrini qayta kashf etishga qaratilgan keng qamrovli falsafiy jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi dunyodagi turli universitet va ilmiy markazlar aynan shu maqsadda Renessansni nafaqat bir tarixiy bosqich sifatida, balki zamonaviy ijtimoiy muammolarni echishga xizmat qiluvchi tafakkur tizimi sifatida o'rganmoqdalar. Masalan, Villa I Tatti – Garvard universitetining Florensiyada joylashgan Italyan Renessansiga bag'ishlangan markazi – Renessans davrining ilmiy, adabiy va madaniy merosini chuqur o'rganish bilan birgalikda, bu davrning inson fe'l-atvorini, axloqiy qadriyatlarini qanday qayta shakllantirganini tahlil qiladi. Bu markazda olib borilayotgan tadqiqotlar insonni borliq markaziga qo'yish, uning ijodiy, ma'naviy va intellektual salohiyatini targ'ib qilish g'oyalari bilan faol bog'liqdir. Bu holat ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, insonning tarixi, madaniyati va ma'rifiy ruhiyatini anglash orqali barqaror rivojlanishga intilish jarayonini aks ettiradi.

Fransiyaning Tur shahridagi Centre d'études supérieures de la Renaissance (CESR) va Londondagi Warburg Instituti markazlari ham Renessansning ma'naviy va estetik qirralarini tarixiy va falsafiy chuqurlikda tahlil qilishga ixtisoslashgan. Ulardagi tadqiqotlar faqat san'at yoki falsafa emas, balki insonni ijtimoiy munosabatlar tizimida qanday rol o'ynashi, aql va qalb uyg'onishi orqali qanday yangi hayot konsepsiyasi shakllanganini o'rganishga qaratilgan. Bu markazlar insonning o'zligini anglash, ichki erkinlik va intellektual mustaqillik kabi qadriyatlarni qayta jonlantirishni ilgari suradi.

Shu bilan birga, Arizona shtat universiteti qoshidagi ACMRS (Arizona Center for Medieval and Renaissance Studies) markazi, UCLAdagi Center for Early Global Studies va Stenford universiteti qoshidagi CMEMS (Center for Medieval and Early Modern Studies) kabi amerikalik tadqiqot markazlari Renessansni global miqyosda, ya'ni turli xalqlar madaniyati, falsafasi va ijtimoiy tajribalari bilan bog'liq holda o'rganmoqda. Masalan, Race4Race dasturi doirasida Renessans davridagi irqiy munosabatlar, tenglik g'oyalari va inson huquqlarining shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Bu esa zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy adolat, farovonlik va hamjihatlik kabi masalalarni falsafiy-ma'rifiy asosda hal etishga xizmat qiladi.

Boshqa bir muhim markaz – Belgiyadagi KU Leuven universiteti qoshidagi Illuminare markazi – Renessans san'atini, ikonik manuskriptlar va ma'naviy

² Диссертациянинг мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи; <https://itatti.harvard.edu/>, <https://cesr.univ-tours.fr/>, <https://warburg.sas.ac.uk/>, <https://www.sns.it/en/istituto-nazionale-di-studi-sul-rinascimento>, <ps://www.utu.fi/en/university/faculty-of-humanities/tucemems>, <https://www.reading.ac.uk/english-literature/research/emrc.aspx>, <https://www.illuminare.be/>, <https://acmrs.asu.edu/>, <https://cmrs.ucla.edu/>, <https://globalstudies.ucla.edu/>, <https://www.newberry.org/research/research-centers/renaissance-studies>, <https://dlcl.stanford.edu/groups/center-medieval-and-early-modern-studies>, <https://cmrs.trinity.duke.edu/>, <https://cmrs.osu.edu/>, <https://www.gla.ac.uk/schools/critical/research/researchcentresandnetworks/mrsg/>, <https://crrs.utoronto.ca/>

vizual kodlar orqali insonning yorug‘lik va ma’rifat sari intilishini estetik-falsafiy tahlil etadi. Bu markaz inson aqlining ramziy obrazlar orqali qanday qilib yuksalishi mumkinligini tadqiq qiladi, bu esa ma’naviy tafakkurning qayta uyg‘onishi uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Finlyandiyadagi Turku Centre for Medieval and Early Modern Studies (TUCEMEMS) markazi ham Renessansni faqat Yevropatsentrik nazar bilan emas, balki sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot va global madaniy ta’sirlar kontekstida o‘rganadi. Bu markazdagi tadqiqotlar global ijtimoiy aloqalar va hamkorlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, jahon xalqlarining birgalikda rivojlanishini ta’minlovchi falsafiy-ijtimoiy yondashuvni targ‘ib qiladi.

Ushbu markazlarning umumiy vazifasi – Renessansni faqat tarixiy bosqich sifatida emas, balki XXI asr muammolari uchun falsafiy-nazariy echimlar taklif etuvchi tafakkur jarayoni sifatida qayta tahlil qilishdir. Bu markazlar Renessansning insonga, jamiyatga, axloq va ma’rifatga nisbatan yangicha qarashlarni ilgari surishi bilan, faqat akademik emas, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ular jahon aholisining ma’rifiy kamolotga erishishi, axloqiy adolatni tiklashi va ijtimoiy tenglikni ta’minlashi uchun falsafiy-ilmiy zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, dunyo bo‘ylab Renessans fenomeniga bag‘ishlangan tadqiqot markazlari va universitetlar bugungi kunda ijtimoiy o‘zgarishlar jarayonida inson qadri, ma’rifat, tenglik, madaniy muloqot va falsafiy yuksalish g‘oyalarini qayta kashf etish bilan shug‘ullanmoqda. Ular o‘z faoliyati orqali Renessansni zamonaviy taraqqiyotning ma’naviy rivojlanish darajasi sifatida talqin qilib, insoniyatning kelajagiga falsafiy-ma’naviy ruh bag‘ishlamodalar.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Renessans fenomenining mamlakatimizda tadqiq etilishi uchun juda katta turtki berdi va Yangi O‘zbekiston g‘oyasining ma’naviy asosi sifatida belgilab berdi: “Yangi O‘zbekiston tushunchasida mujassam bo‘lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning etuk vakillarini uni ro‘yobga chiqarish yo‘lida amaliy harakatlarga undab keldi. ...Bu asriy orzu xalqimiz erishgan Birinchi Renessansga va ilk o‘rta asrlardagi Ma’rifiy uyg‘onish davriga asos bo‘lgan, uning ma’naviy poydevori sifatida xizmat qilgan desak, yanglishmagan bo‘lamiz”³.

O‘zbekistonda F.Sulaymonova, Q.Nazarov, I.Saifnazarov, M.Ismoilov, J.Ramatov, M.Mamatov, U.Qurbonov, Abdulla Sher, B.Xusanov, A.Muxamedov, Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burhonova, X.Mardonov, A.Nizomov, Ch.Mahmudova, Z.Ashirova, J.Daniyarov, R.Umarova, L.To‘rayev, F.To‘rayev, M.Baratov, I.Rustamov, I.Hamdamov, N.Ramozonov, R.Haydarov, A.Ahmedov, R.Xolboyeva, U.Abdullayev, G.Navro‘zova, M.Gulamova, A.Choriyev, S.Choriyev, A.Nazarov, H.Sadibaqosev, D.Komilova, B.Sayfullayev, E.Babayeva, M.Usmonov, N.Xoliqova, K.Sultonovlar tomonidan Renessans davri bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar olib borilgan⁴.

³ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 16.

⁴ Ushbu va quyidagi mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatida keltirilgan.

Rossiya va Ukriana S.Ivanov, M.Kissel, B.Bertels, G.Matviyevskaya, N.Chyerkun, I.Doroshin, V.Andreyev, A.Anoxin, M.Syusyukin, N.Osinovskiy, G.Xlebnikov, S.Ivanov, V.Pechatnov, A.Kruglov, R.Remini, N.Isayeva, T.Skoroxodova, V.Gelbraslar tomonidan dunyoning turli mintaqalaridagi uygʻonish davrlari bilan bogʻliq ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Yevropa va AQShdagi renessans bilan bogʻliq jarayonlarni G.Gutas, Ph.Aghion, X.Jaravel, T.Persson, V.Krishna, T. Kim, L.Crouch, D.Spindelman, A.Anderson, B.Burn, B.Carr, F.Christopher, M.Skelton, F.Azzolini, M.Tucker, M.Engels, D.David, J.Aleksander, M.Hershey, P.Watson, M.Moore, P.Thomas, K.Fomeshi B.Palmieri, L.Keuss, C.Rastegar, B.Zollner kabi olimlar turli nuqtayi nazarlardan tahlil qilishgan.

Maʼlumki, Rennsans hodisasi keng qamrovli boʻlib, Yaponiya, Hindiston va Xitoyda ham yuz bergan va bu jarayonlar Zhang, Erjia Sakuma, Hiroyuki Jin, Kaoru Sugihara, Kawamoto, Z.Chen, Sarkar, P.R.Narasimhan, Haripriya, Bandhapadhyay, Asitkumar, Soman, Priya, Smita Narula, Bhattacharjee, Debraj, Wang H, Li S, H.Zhang, Y.Yuan, Y.Ge kabi olimlarning diqqat markazida boʻlgan.

Arab davlatlaridagi uygʻonish Nahdaning falsafiy masalalari bilan R.Haqqparast, M.Salangi, Abd-Allah, Amina, A.Hussah, Al.Jabbar, M.J.M.Yusof, A.A.Ghafar, I.Ismail kabi olimlar shugʻullangan.

Mazkur tadqiqotda Sharq va Gʻarbdagi renessans jarayonlariga sabab boʻlgan omillar, dunyodagi turli madaniy yuksalishlarning oʻzaro dialektik aloqadorligi hamda Oʻzbekistonda Uchinchi Rennsans poydevorini mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy masalalari jahon renessanslari prizmasida mamlakatimizda madaniy yuksaltirish zaruriyatining falsafiy konseptual masalalari tahlil qilish zaruratidan kelib chiqib oʻrganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Yoshlar dunyoqarashidagi transformatsiya jarayonlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo, Yevropa, Amerika, Xitoy, Hindiston va Yaponiya misolida global uygʻonish (renessans) jarayonlarini oʻzaro taqqoslash orqali renessans fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish, zamonaviy taraqqiyot uchun undan foydalanish istiqbollari ilmiy tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy-falsafiy manbalar tahlili orqali Markaziy Osiyodagi Ilk va Ikkinchi uygʻonish davrlarining oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularning ilm-fan, madaniyat va davlatchilik tizimidagi oʻrnini baholash;

Yevropa renessansi, Yaponiyadagi Meydzi inqilobi va Amerika uygʻonishi misolida milliy tiklanish jarayonlarining umumiy va farqli jihatlarini tahlil qilish, modernizatsiya jarayonidagi rolini ochib berish;

Hindiston, Xitoy va Arab mamlakatlaridagi milliy uygʻonish harakatlarining asosiy ilmiy-maʼrifiy, madaniy va siyosiy omillarini oʻrganish, ularning rivojlanish strategiyalarini koʻrsatib berish;

zamonaviy Xitoyda rivojlangan taraqqiyot modeli asosida iqtisodiy va maʼnaviy qayta tiklanish oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil qilish, “ijtimoiy kapitalizm” modeli va uning samaradorligini baholash;

turli mintaqalardagi uygʻonish (renessans) davrlarida yuzaga chiqqan ilmiy va falsafiy gʻoyalarning oʻzaro taʼsiri va global sivilizatsiyaga qoʻshgan hissasini allomalar merosi misolida tadqiq etish;

Oʻzbekistonda Uchinchi Renessansni amalga oshirish sharoitida yuqoridagi tarixiy tajribalardan qanday ijtimoiy, mafkuraviy va strategik xulosalar chiqarish mumkinligini aniqlash va zamonaviy fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqot obyektini jahondagi uygʻonish (renessans) harakatlari va ularning ijtimoiy-falsafiy jarayonlarga koʻrsatgan taʼsiri tashkil etadi.

Tadqiqot predmetini turli tarixiy davrlar va mintaqalardagi – Markaziy Osiyo, Yevropa, Amerika, Arab dunyosi, Hindiston, Yaponiya va Xitoydagi – uygʻonish (renessans) jarayonlarini jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-maʼnaviy oʻrni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks va tizimli tahlil, konseptual nazariyalarni qiyoslash, sotsiometrik (soʻrov, anketa, suhbat, intervyu), kontent analiz, eksperiment va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyodagi ilk va ikkinchi uygʻonish davrlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili asosida ularning ilm-fan, madaniyat va davlatchilik tizimidagi sivilizatsion oʻrni oʻrganilib, ushbu tahlil orqali uygʻonish jarayonlarining Sharq tafakkuriga xos metodologik ustunliklari va ularning zamonaviy renessans modellari uchun asos sifatida qaralishi ilk bor ochib berilgan;

Yevropa Renessansi, Meydzi inqilobi va Amerika uygʻonishi misolida milliy tiklanish jarayonlari oʻrtasidagi umumiylik va xususiylik ilk bor modernizatsiya kategoriyasida taqqoslama tahlil orqali modernizatsiyaning falsafiy tipologiyasi va milliy suverenitetni tiklashdagi rolini ifodalovchi yangi nazariyalarni kategorial-qiyosiy diagnostikalash asosida aniqlashtirilgan;

Arab, Hind va zamonaviy Xitoy uygʻonish harakatlarining ilmiy-maʼrifiy va madaniy rivojlanish strategiyalari, kontekstual yondashuv asosida tizimlashtirilishi orqali, mahalliy anʼanalar va Gʻarb maʼrifatparvarligi oʻrtasidagi falsafiy muvozanatning transformatsiyalashuv dinamikasiga ustuvorlik berishi aniqlangan;

global sivilizatsion muloqot jarayonida renessans hodisasining integrativ rolini ifodalovchi nazariy modeli jahon tafakkuri rivojlanish tarixida Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi falsafiy almashinuvlarini tizimlashtirish jarayonlariga uygʻonish davri allomalar merosi, ilmiy va falsafiy gʻoyalar oʻrtasidagi dialektik taʼsir mexanizmlarini uygʻunlashtirish asosida takomillashtirilgan;

Yangi O‘zbekistonda uchinchi Renessansni amalga oshirish istiqbollari, uyg‘onish davri tajribalaridan ijtimoiy, mafkuraviy va strategik xulosalar chiqarish asosida milliy rivojlanish konsepsiyasi uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda uchinchi Renessansni amalga oshirish jarayonida turli tarixiy uyg‘onish modellari (Markaziy Osiyo, Yevropa, Amerika, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Arab olami) tahlili asosida milliy rivojlanish uchun falsafiy-mafkuraviy asosni mustahkamlaydigan konseptual yondashuvlar ishlab chiqildi. Bu yondashuvlar davlat siyosatini fuqarolik jamiyati, ma’naviy qayta tiklanish va ta’lim islohotlari bilan uyg‘unlashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Ta’lim muassasalari, ayniqsa oliy va ilmiy tadqiqot institutlari uchun “Jahon uyg‘onish jarayonlari va zamonaviy taraqqiyot” mavzusida o‘quv-metodik kurs dasturi asoslandi. Unda uyg‘onishning falsafiy mohiyati, tarixiy namunasi va ulardan olinadigan ijtimoiy xulosalar tizimli ravishda o‘qitilishi mumkin.

Turli mintaqalardagi uyg‘onish jarayonlari tahlili orqali rivojlanayotgan davlatlar uchun barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda foydalaniladigan muqobil modellar (masalan, “ijtimoiy kapitalizm”, “ma’rifiy modernizm”, “innovatsion an’anaviylik”) taklif etildi. Bu modellar siyosiy tahlil, strategik rejalash va ijtimoiy islohotlar uchun amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalar materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiyalardagi ilgari surilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar jahon sivilizatsiyasidagi renessans (uyg‘onish) jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida qiyosiy o‘rganib, turli mintaqalardagi uyg‘onish modellarining umumiy va o‘ziga xos jihatlarini ilmiy asosda aniqlab berdi. Ushbu tahlil natijasida global tafakkurda Sharq va G‘arb o‘rtasidagi falsafiy muloqot va ta’sirlashuv mexanizmlari ilmiy nuqtai nazardan tizimlashtirildi va renessans fenomeniga nisbatan yangi g‘oyaviy yondashuvlar ilgari surildi.

O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni amalga oshirish jarayonida ta’lim, madaniyat, fuqarolik jamiyati va milliy mafkurani rivojlantirish bo‘yicha davlat strategiyalarini ishlab chiqishga amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu tahlillar oliy ta’lim muassasalaridagi falsafa, siyosatshunoslik, tarix va madaniyatshunoslik yo‘nalishlari uchun o‘quv-metodik material sifatida foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, unda ilgari surilgan mulohaza va xulosalarning oliy ta’lim muassasalarida “Ijtimoiy falsafa”, “Etika”, “Estetika”, “Madaniyat falsafasi”, “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik

jamiyati”, “Sotsiologiya” fanlari bo‘yicha tayyorlanadigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish jarayonida hamda ilmiy-pedagogik faoliyatda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Renessans fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Markaziy Osiyodagi Ilk va Ikkinchi uyg‘onish davrlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili asosida ularning ilm-fan, madaniyat va davlatchilik tizimidagi sivilizatsion o‘rni ilk bor ochib berilgan. Ushbu tahlil orqali uyg‘onish jarayonlarining Sharq tafakkuriga xos metodologik ustunliklari va ularning zamonaviy renessans modellari uchun asos sifatida qaralishiga doir nazariy xulosalardan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasi faoliyatida foydalanib kelinmoqda hamda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatlarida amaliyotga tatbiq etilgan. (O‘zbekiston “Liberal demokratik partiyasi”ning 2025-yil 20-avgustdagi 01-27/354-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya ishida ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar Renessans fenomenining ijtimoiy falsafiy mohiyatini tahlil etishga hamda yoshlarning qalbidan joy olgan insonparvarlikka yo‘g‘rilgan bag‘rikenglik va vatanparvarlik kabi ma’naviy-axloqiy tamoyillar milliy-ijtimoiy taraqqiyotimizni yangi bosqichga ko‘tarishda xizmat qilgan;

Renessans fenomenining ijtimoiy-falsafiy aspektlari milliy tiklanish jarayonlari o‘rtasidagi umumiylik va xususiylik parametrlariga Yevropa Renessansi, Meydzi inqilobi va Amerika uyg‘onishi misolida milliy tiklanish jarayonlari o‘rtasidagi umumiylik va xususiylik ilk bor modernizatsiya kategoriyasida tahlil qilinib, ushbu taqqoslama tahlil orqali modernizatsiyaning falsafiy tipologiyasi va milliy suverenitetni tiklashdagi rolini ifodalovchi yangi nazariyalarni kategorial-qiyosiy diagnostikalash asosida aniqlashtirilgan. Ushbu taqqoslama tahlil orqali modernizatsiyaning falsafiy tipologiyasi va milliy suverenitetni tiklashdagi rolini ifodalovchi yangi nazariy yondashuv ishlab chiqilganiga oid amaliy takliflaridan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazining 2024-yildan boshlab o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida amaliyotga tatbiq etilgan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi 36-son qarori 2-ilovasida Markazning 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturi III-yo‘nalishida belgilangan oliy, professional va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan ma’naviy-ma’rifiy soha vakillarini o‘quv, metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar va taqdimot materiallari bilan ta’minlash ishlarini tashkil etishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan. (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazining 2025-yil 18-avgustdagi 1/01-13-son ma’lumotnomasi). Ushbu tadqiqot ishi natijalari asosida turli mintaqalardagi uyg‘onish jarayonlari tahlili orqali rivojlanayotgan davlatlar uchun barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda foydalaniladigan muqobil modellar (masalan, “ijtimoiy kapitalizm”, “ma’rifiy modernizm”, “innovatsion an’anaviylik”) taklif etilgan. Bu modellar siyosiy tahlil, strategik rejalash va ijtimoiy islohotlar uchun amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi;

Renessans ijtimoiy hodisasining ilmiy-ma'rifiy, madaniy va siyosiy omillari Arab, Hind va Xitoy uyg'onish harakatlarining konseptual tizimini G'arb ma'rifatparvarligi rivojlanish strategiyalari asosida transformatsiyalashuv dinamikasiga ustuvorlik berish orqali aniqlanganiga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III-yo'nalishi belgilangan "Milliy g'oya targ'ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog'lom mafkura, yangi ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar" 19-bandi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash doirasida zamonaviy va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazining 2025-yil 5-avgustdagi 10/508-son ma'lumotnomasi). Ushbu tahlil natijasida global tafakkurda Sharq va G'arb o'rtasidagi falsafiy muloqot va ta'sirlashuv mexanizmlari ilmiy nuqtai nazardan tizimlashtirilgan va renessans fenomeniga nisbatan yangi g'oyaviy yondashuvlar ilgari surilishiga amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Turli uyg'onish davrlarida yuzaga chiqqan ilmiy va falsafiy g'oyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, allomalar merosi misolida o'rganilib, global sivilizatsion muloqot jarayonida ularning integrativ rolini ifodalovchi nazariy model yaratildi. Bu model jahon tafakkuri tarixida Sharq va G'arb o'rtasidagi falsafiy almashinuvlarni tizimlashtirishga xizmat qilganligiga oid ilmiy yangilik, nazariy xulosalari, metodologik tavsiyalari hamda amaliy takliflaridan O'zbekiston Respublikasi din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2024-2025-yillarda o'tkazilgan targ'ibot dasturlarida amaliyotga tatbiq etilgan. (O'zbekiston Respublikasi din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 20-avgustdagi 04-12/23-03-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekistonda uchinchi Renessansni amalga oshirish sharoitida turli uyg'onish tajribalaridan ijtimoiy-mafkuraviy va strategik xulosalar chiqarish asosida milliy rivojlanish konsepsiyasi uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganiga doir ilmiy yangilik, nazariy xulosalari, metodologik tavsiyalari hamda amaliy takliflari qo'mita tadbirlarining saviyasini yanada boyitishga, milliy o'zlikni anglash, uzluksiz milliy tarbiya tizimini takomillashtirishga xizmat qildi.

O'zbekistonda uchinchi Renessansni amalga oshirish sharoitida turli uyg'onish tajribalaridan ijtimoiy-mafkuraviy va strategik xulosalar chiqarish asosida milliy rivojlanish konsepsiyasi uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganiga doir ilmiy yangilik, nazariy xulosalari, metodologik tavsiyalari hamda amaliy takliflaridan Andijon davlat pedagogika institutida bajarilayotgan 2024-yil 26-martdagi 01-166-sonli buyruq asosida amalga oshirilayotgan "Moddiy javobgar shaxslarning tavakkalchilik bilan bog'liq virtual o'yinlarga moyilligini diagnostika va korreksiya qilish" amaliy loyihasida foydalanilgan (Andijon davlat pedagogika institutining 2025-yil 6-avgustdagi 04-710-son ma'lumotnomasi). Jumladan, O'zbekistonda uchinchi Renessansni amalga oshirish istiqbollari turli uyg'onish tajribalaridan ijtimoiy-mafkuraviy va strategik xulosalar chiqarish asosida milliy rivojlanish konsepsiyasi uchun taklif va

tavsiyalar ishlab chiqish asosida aniqlanganligiga doir ilmiy yangiliklardan o'tkazilgan seminar-treninglarda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprotatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola (ulardan 11 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarida) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 222 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari, tadqiqot obyekti, predmeti, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi asoslangan.

Dissertatsiyaning "**Sharq renessansi va uni kelib chiqishining ijtimoiy-falsafiy omillari**" deb nomlangan birinchi bobida mintaqamizdagi ikki renessansning vujudga kelishi, uning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotdagi o'rnini xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, Yaponiyadagi Mejdzi inqilobining milliy taraqqiyotni ta'minlashdagi hal qiluvchi o'rnini tahlil etilgan.

Birinchi bobning "**Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda ilk Uyg'onish davrining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillari**" deb nomlangan birinchi paragrafida Markaziy Osiyodagi uyg'onish (Renessans) davri Somoniylar va Qoraxoniylar davlatlari hukmronligidagi ilmiy, madaniy va ma'naviy yuksalish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Bu uyg'onishga siyosiy barqarorlik, Islom sivilizatsiyasining ilmga rag'bati, Ipak yo'li orqali madaniy almashinuv, tabiiy resurslar, milliy an'analarning saqlanishi va davlat himoyasidagi ilm-fan siyosati kabi omillar turtki bo'lgan. Ushbu davrda Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy va Zamaxshariy kabi buyuk allomalar etishib chiqqan. Ular ilm-fanni yunon-rim an'analari va Islom dunyoqarashi bilan uyg'unlashtirgan holda rivojlantirdilar. Ularning asarlari nafaqat Islom olamida, balki G'arbda ham katta ta'sirga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, me'morchilik, madrasalar, kutubxonalar va san'at sohalaridagi rivojlanish Markaziy Osiyoning global madaniy merosi sifatida yuksalishiga xizmat qilgan. Ilmiy va axloqiy uyg'unlik, falsafiy tafakkur va ma'naviy kamolotga intilish ushbu uyg'onish davrining falsafiy mohiyatini tashkil etgan.

Ushbu bobning **“Markaziy Osiyodagi ikkinchi uyg‘onish davri va uning falsafiy mohiyati”** nomli ikkinchi paragrafida Markaziy Osiyoda XIV–XV asrlarda yuz bergan ikkinchi uyg‘onish (Renessans) davri nafaqat mintaqa, balki jahon sivilizatsiyasi tarixidagi eng muhim madaniy va ilmiy yuksalishlardan biri sifatida baholanadi. Bu davr, asosan, Amir Temur va Temuriylar sulolasi hukmronligiga to‘g‘ri kelib, ilm-fan, adabiyot, me‘morchilik va san‘atdagi beqiyos taraqqiyot bilan ajralib turadi. Uyg‘onish jarayonining falsafiy mohiyati inson aqlining imkoniyatlarini yuksak qadrlash, ma‘rifat va ilmni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida e‘tirof etishdan iborat bo‘ldi.

Ikkinchi uyg‘onishga turtki bergan omillar bir necha qatlamda namoyon bo‘ldi. Birinchidan, siyosiy barqarorlik va markazlashgan davlat tizimining vujudga kelishi – Amir Temurning kuchli markazlashgan boshqaruvi madaniy hayotni rag‘batlantirdi. Samarqandning madaniy va ilmiy markazga aylanishi bu siyosiy barqarorlikning amaliy natijasi edi. Ikkinchidan, iqtisodiy yuksalish va Ipak yo‘li orqali amalga oshgan savdo aloqalari mintaqada bilimlar, tajribalar va g‘oyalar almashinuvini rag‘batlantirdi. Bu madaniy va ilmiy tiklanish uchun zarur moliyaviy sharoitlarni yaratdi. Ilmiy va madaniy homiylik siyosati Temuriylar davrining o‘ziga xos belgisi bo‘ldi. Ulug‘bekning Samarqandda qurdirgan observatoriyasi, uning “Ziji Ko‘ragoniy” kabi astronomik asarlari nafaqat zamonasining ilm-faniga, balki keyingi asrlarda Yevropa va Sharq ilmlarining uyg‘unlashuviga ham katta ta‘sir ko‘rsatdi. Ulug‘bek ratsionalizmga asoslangan ilmni diniy va mifologik tushunchalardan ajratib, tajriba va mantiqqa asoslangan tadqiqotlar orqali rivojlantirdi. Bu esa, Markaziy Osiyoda ilmiy fikrlashning yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib keldi.

Temuriylar davrida adabiyot va san‘at sohalari ham beqiyos rivojlandi. Alisher Navoiy turkiy tilni mukammal adabiy til darajasiga ko‘tardi, uning ijodi inson qadri, ma‘naviy yuksalish va adolat g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lib, falsafiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Uning “Xamsa”si va “Mahbub ul-qulub”i faqat badiiy emas, balki falsafiy va ijtimoiy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan asarlardir. Navoiy gumanizmi insonni jamiyat markaziga qo‘yib, ma‘rifat, mehnat va axloq orqali kamolotga erishishni asosiy maqsad sifatida ko‘rsatadi.

Bu davrda diniy va ma‘naviy qadriyatlarning milliy an‘analar bilan uyg‘unlashuvi ham nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etdi. Xo‘ja Ahror Valiy va Bahouddin Naqshband kabi tasavvuf arboblari o‘z ta‘limotlari orqali insonning ma‘naviy yuksalishini jamiyat barqarorligi bilan bog‘lagan holda ta‘lim berishdi. Xususan, Naqshbandiya tariqati insonning ichki dunyosini tozalash, zikr orqali nafsni engish va ijtimoiy adolatni qaror toptirish g‘oyalari asoslanadi. Bu tariqatning falsafiy mohiyati insonning shaxsiy kamoloti va jamiyat oldidagi mas‘uliyati uyg‘unligini ta‘minlashga qaratilgan.

Ikkinchi uyg‘onish davrida ijodkorlar, olimlar va arboblari antik davr yunon-rim falsafasi bilan islomiy fikrni sintezlashtirishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu jarayon falsafiy bilimlarning chuqurlashishi, aql va ma‘rifatning ustuvorlikka ega bo‘lishiga olib keldi. Ratsionalizm va gumanizm bu davrning asosiy falsafiy yo‘nalishlari sifatida shakllandi.

Markaziy Osiyodagi ikkinchi uygʻonishning gʻoyaviy asoslari bugungi kunda Uchinchi Renessansni barpo etishda muhim manba boʻlib xizmat qilmoqda. Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Qozizoda Rumiy, Kamoliddin Behzod, Xoʻja Ahror Valiy va Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalarning merosi nafaqat tarixiy, balki zamonaviy falsafiy-axloqiy masalalarni echishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ularning ijodi va taʼlimotlari insonni jamiyatning maʼnaviy asosi sifatida koʻradi va taraqqiyotni aql, maʼrifat va adolat bilan bogʻlaydi.

Birinchi bobning **“Meydzi inqilobi va uning maʼrifiy xususiyatlari”** mavzusidagi uchinchi paragrafida XIX asrning ikkinchi yarmida Yaponiyada yuz bergan Meydzi inqilobi (1868-yil) mamlakat tarixida tub burilish yasagan siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayon sifatida baholanadi. Bu inqilobning asosiy mohiyati – Yaponiyani feodal-izolyatsionist tuzumdan industrial va modern milliy davlatga aylantirishdan iborat boʻlib, u xalqning ongi, davlat boshqaruvi, fan-texnika va maʼnaviy sohalaridagi yuksalishga asos soldi.

Meydzi islohotlari orqali Yaponiyada shohlar mutlaq hokimiyatiga asoslangan imperatorlik tizimi tiklandi, bu esa davlat birligi va markazlashuvini taʼminladi. Siyosiy jihatdan bu islohotlar samuraylar tabaqasining tugatilishi, yangi byurokratiya shakllanishi, zamonaviy armiya va politsiya tizimining yaratilishiga olib keldi. Inqilobning iqtisodiy asosini kapitalistik bozor munosabatlari, sanoatlashtirish va transport-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanishi tashkil etdi. Fan va taʼlim sohasidagi yangilanishlar Yaponiyaning intellektual taraqqiyotiga kuchli turtki berdi. Gʻarb davlatlari bilan aloqalar kuchaydi, chet ellik mutaxassislar taklif qilindi, yoshlar Yevropa va Amerika universitetlarida tahsil oldi. Bunday ochiqlik va muloqot Yaponiyada zamonaviy fan, texnika va demokratik qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qildi.

Meydzi davrida diniy va madaniy hayot ham isloh qilindi. Sintoizm davlat dini sifatida mustahkamlandi, lekin din va davlatni qisman ajratish, tolerantlik, madaniyatlararo muloqot uchun imkoniyatlar yaratildi. Gʻarb madaniyati va milliy anʼanalar uygʻunlashtirilib, modern Yaponiya madaniyati shakllandi. Inson, jamiyat va tabiat oʻrtasidagi uygʻunlik gʻoyasi – yapon falsafasining markaziy nuqtasi sifatida qayta tiklandi. Bu inqilobning falsafiy mohiyati – aql, maʼrifat va pragmatizm asosida oʻzgarishlarni amalga oshirish, inson va jamiyat taraqqiyotini vaqt va tarix zaruriyatidan kelib chiqqan holda tashkil etishdan iboratdir. Yaponiyaning modernizatsiyasi jahon sivilizatsiyasining bir qismiga aylanish, oʻz milliy xususiyatlarini saqlagan holda global maydonda raqobatbardosh davlatga aylanish imkonini yaratdi.

Natijada, Meydzi islohotlari faqat iqtisodiy yoki siyosiy emas, balki falsafiy jihatdan ham insoniy kamolotga, milliy oʻzligini anglashga va jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan uygʻonish davri sifatida eʼtirof etiladi. U Yaponiyada **“Oʻzgarish orqali saqlab qolish”** shiorida mujassam boʻlgan falsafiy yondashuvning amaliy ifodasi boʻldi.

Dissertatsiyaning **“Gʻarbda vujudga kelgan renessansning genezisi va uning ijtimoiy-tarixiy mohiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi

paragrafi **“Yevropa uyg‘onish davrining genezisi va uning o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlanib, Yevropa Uyg‘onish davri insoniyat tarixida tafakkur paradigmasining radikal o‘zgarishi yuz bergani xususida bahs yuritadi. XIV-XVII asrlar oralig‘ida yuz bergan bu madaniy va aqliy uyg‘onish jarayoni, ijtimoiy-siyosiy strukturalar, diniy tushunchalar va tabiiy ilmlarga bo‘lgan munosabatlarni tubdan o‘zgartirdi. Ushbu davr falsafa va fanning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi asosida shakllangan bo‘lib, insonni borliq markaziga qo‘ygan gumanistik qarashlar bilan ilmiy izlanishlarning uyg‘unlashuvi orqali zamonaviy tafakkur asoslari yaratildi.

Uyg‘onish falsafasining asosiy tamoyili inson ongi, tajribasi va aqliy qobiliyatining mutlaq qadrlanishidir. Leonardo da Vinchi, Galiley, Kopernik, Bekon, Dekart kabi buyuk shaxslar faoliyati falsafa va ilmning hamjihatlikda harakat qilishini anglatadi. Leonardo anatomiya va san‘atni uyg‘unlashtirgan bo‘lsa, Galiley ilmiy kuzatuv va tajriba orqali dogmatik geotsentrik tizimni inkor qildi. Bu jarayonlar Dekartning mantiqiy shubhaga asoslangan falsafasi va Bekonning empirik metodologiyasi bilan mafkuraviy poydevorga aylandi. Ilm-fan rivojidadagi empirik yondashuv – Aristotelning deduktiv qarashlaridan radikal farq qilib, tabiatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish va tajribaga asoslanishga yo‘naltirildi. Ushbu jarayon faqat falsafiy metamorfoza emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy dinamikalar bilan ham uzviy bog‘liq bo‘ldi. Xususan, XIV asr o‘rtalaridagi “Qora o‘lat” epidemiyasi, inson ongini diniy aqidalardan dunyoviy tushunchalar sari burdi. Individualizm, shaxsiy fikr, tajriba va mantiqiy tahlil asosiy g‘oyaviy qiymat sifatida mustahkamlana boshladi.

Uyg‘onish davridagi falsafiy yuksalish cherkov bilan fan o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ham yaqqol namoyon etdi. Cherkov tomonidan yozilgan diniy ta’limotlar ko‘p hollarda ilm-fanning rivojiga to‘siq bo‘lgan bo‘lsa-da, ba’zan cherkov monastirlari ta’lim markaziga aylanib, fanning rivojiga hissa ham qo‘shgan. Ammo Galiley singari olimlar e’tiqod va aql o‘rtasidagi ziddiyatni ochib berdilar. Bu munosabat falsafiy jihatdan aqlning erkinligi va mantiqiy izlanishni qo‘llab-quvvatlovchi yangi ilmiy-axloqiy paradigmalarga yo‘l ochdi.

Uyg‘onish falsafasida gumanizm markaziy o‘rinni egalladi. Erazm Rotterdamskiy va Tomas Mor kabi mutafakkirlar, inson salohiyati, axloqiy poklik, dunyoviylik va ta’lim orqali jamiyatni yaxshilash imkoniyatlarini asoslab berdilar. Ushbu harakat shuningdek, falsafaning amaliyot bilan uyg‘unlashuvi, boshqaruvdagi etika va siyosiy falsafaning yuksalishiga sabab bo‘ldi. Makiavellining “Hukmdor” asari shuning yorqin namunasi.

Yuqoridagi intellektual almashinuv va g‘oyalar tarqalishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynadi:

– bosma dastgohning ixtiro qilinishi – bilimlarni ommaviy tarqatishga imkon yaratdi;

– Arab-Islom dunyosi bilan ilmiy muloqotlar – Yevropani algebra, astronomiya va tibbiyot sohalarida ilmiy rivojlanishga etakladi;

– homiylik tizimi – ilm-fan va san‘atning himoya qilingan muhitda erkin rivojlanishiga zamin yaratdi.

Shunday qilib, Uygʻonish davrining falsafiy va ilmiy merosi – bu inson ongi, tajribasi va mantiqiy tahlilga asoslangan tafakkurning gʻalabasidir. Bu davrda shakllangan gʻoyaviy tamoyillar keyingi maʼrifatchilik, ilmiy inqilob va zamonaviy demokratik jamiyatlar shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Yevropa Uygʻonish davrida falsafiy va ilmiy taraqqiyot dinamikasi”** deb nomlangan. XIV–XVII asrlar davomida Yevropada yuz bergan Uygʻonish (Renessans) harakati jahon tafakkuri tarixidagi eng muhim bosqichlardan biri boʻlib, inson ongi, aqliy taraqqiyot va dunyoqarashning tubdan oʻzgarishiga olib keldi. Bu davrda shakllangan ilmiy va falsafiy qarashlar dinamikasi, sxolastika va cherkov taʼlimotiga asoslangan oʻrta asrlar tafakkuridan keskin farq qilardi. Uygʻonish falsafasi insonni borliq markaziga qoʻyish, aql va tajribaga suyangan holda olamni anglash, falsafa va ilmni uygʻunlashtirish tamoyillariga tayangan.

Falsafadagi burilish avvalo inson tabiatini, shaxs ongi va irodasini chuqur tadqiq etish bilan boshlandi. Gumanizm ushbu davr falsafasining asosiy yoʻnalishi sifatida shakllandi. Erazm Rotterdamskiy, Piko della Mirandola va Tomas Mor singari mutafakkirlar insonning tabiiy qudrati, axloqiy masʼuliyati va maʼnaviy yuksalishini madh etishdi. Ular ilm-fanni dindan butunlay uzishga intilishmasdan, uni insonga xizmat qiladigan ijtimoiy-axloqiy institut sifatida koʻrdilar. Ilmiy tafakkurda esa, empirik-tajriba asosida bilimlarni shakllantirishga oʻtish jarayoni yuz berdi. Buyuk mutafakkir Frensis Bekon ilm-fan rivoji uchun kuzatish va tajribaga asoslangan induktiv metodni ilgari surdi. Rene Dekart esa, “Fikrlayman, demak, mavjudman” (“Cogito, ergo sum”) degan mashhur gʻoyasi bilan ratsionalizmga asoslangan bilim tizimini shakllantirdi. Uning mantiqiy shubha metodi falsafiy tanqid va tahlilning yangi davrini boshlab berdi.

Ushbu intellektual inqilobning muhim jihati shundaki, u falsafa va ilm oʻrtasidagi sunʼiy chegaralarni bekor qildi. Galileo Galiley, Nikolay Kopernik, Iogann Kepler va Isaak Nyuton kabi olimlar kosmologik tasavvurlarni yangilab, insoniyatni geotsentrik qarashlardan geliotsentrik tizim sari etakladilar. Galiley teleskop yordamidagi kuzatuvlari bilan ilmni din taʼsiridan xalos qilishga harakat qildi. Bu jarayon eʼtiqod va aql oʻrtasidagi qarama-qarshilikni yaqqollashtirdi, ilmiy erkinlik uchun asos yaratdi.

Uygʻonish davridagi falsafiy qarashlarning shakllanishiga ijtimoiy va siyosiy omillar ham taʼsir etdi. XIV asrda Yevropani qamrab olgan “Qora oʻlat” epidemiyasi, aholining zoʻravonlik va feodal bosimlarga duchor boʻlishi, insoniy qadriyatlar, hayot maʼnosi va axloqiy masʼuliyat masalalarini yanada keskinlashtirdi. Bu esa ekzistensial mazmundagi falsafiy izlanishlarni vujudga keltirdi. Bunday murakkab muhitda falsafa jamiyatni yaxshilash vositasi, axloqiy yuksalish mexanizmiga aylandi.

Ilm-fanning keng ommaga tarqalishida Gutenbergning bosma dastgohini ixtiro qilishi hal qiluvchi rol oʻynadi. Bu vosita orqali kitoblar keng tarqaldi, maʼlumot olish imkoniyatlari koʻpaydi va “ochiq fan” madaniyati shakllandi. Bu holatning oʻzi ilmni demokratlashtirish, maʼlumotni markazdan chetdagi shaxslar uchun ham ochiq qilishga zamin yaratdi. Ilm-fan va falsafa rivojida arab-islom

dunyosi bilan madaniy aloqalar ham katta rol o'ynadi. Arab manbalaridan tarjima qilingan asarlar orqali Arastu, Pifagor, Galen va boshqa antik mutafakkirlarning g'oyalari qayta jonlantirildi. Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy kabi sharq allomalarining ilmiy yutuqlari Yevropaning yangi ilm-fani uchun nazariy poydevor vazifasini o'tadi.

Siyosiy falsafada esa, Nikkolo Makiavellining "Hukmdor" asari feodal qarashlardan voz kechgan holda, real siyosiy tahlil va kuch muvozanatlariga asoslangan davlat boshqaruvini nazariy jihatdan asoslab berdi. Makiavelli inson tabiatini pragmatik va manfaatparvar deb baholab, siyosatni axloqdan mustaqil holda ko'rib chiqdi. Umuman olganda, Uyg'onish davridagi falsafa va ilm-fan qarashlari dinamikasi jamiyatning umumiy dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va intellektual salohiyatida inqilobiy o'zgarishlarni ro'yobga chiqardi. Ushbu jarayon shunchaki fan yoki falsafadagi o'sish emas, balki insonning o'zligini anglash, aql va erkinlikni qadrlash, bilimga intilish orqali yangi sivilizatsion bosqichga ko'tarilish jarayoni bo'ldi.

Ikkinchi bobning **"Amerika renessansi va milliy davlatchilik taraqqiyoti"** mavzusidagi uchinchi paragrafida XVIII asrdagi Amerika ma'rifiy uyg'onishi – siyosiy-huquqiy va falsafiy jihatdan yangi jamiyat modelini shakllantirishga qaratilgan harakatlar bilan tavsiflanadi. Bu davrdagi asosiy mutafakkirlardan biri bo'lgan Tomas Jefferson tabiiy huquqlar, aql va ta'limning ustuvorligini ilgari surib, davlat va din orasidagi chegarani belgilashga intiladi. Benjamin Franklin faoliyati orqali tajriba va ilm-fanga suyangan fuqarolik jamiyati g'oyalarini ilgari surdi. Tomas Peyn esa "aql asri" g'oyasi orqali irratsional aqidalarga qarshi chiqib, insonni erkin, mas'ul va ma'rifatli mavjudot sifatida targ'ib qildi.

XIX asrda esa Amerika Renessansi yangi bosqichga ko'tarildi. Bu bosqichda adabiyot, falsafa va san'atda inson, tabiat va ijtimoiy odillik masalalari chuqur falsafiy tahlil etilib, yangi ma'naviy yuksalish yuz berdi. Bu bosqichda transsendentalizm g'oyasi markaziy o'rinni egallab, inson ongi va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, ichki ma'naviy izlanish va shaxsiy mustaqillik tushunchalarini yoritdi. Ralf Uoldo Emerson inson ruhiyati va tabiatdagi ichki yagonalikni falsafiy asosladi, Genri Devid Toro esa tabiatga suyangan hayot tarzi va g'ayrivo'ravon fuqarolik norozilikni asoslab berdi. Bu g'oyalar AQShda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, ekologiya, erkinlik va shaxsiy mas'uliyat g'oyalarini taraqqiy ettirishda muhim poydevor vazifasini bajardi.

Adabiyotdagi rivoj ham Amerika Renessansida beqiyos o'rin tutadi. Uolt Uitmen o'z she'rlarida inson qadri, erkinlik, tabiat va demokratiya ruhini madh etgan bo'lsa, Edgar Allan Po, Natanel Xotorn va German Melvill singari yozuvchilar Amerika jamiyatidagi psixologik, axloqiy va madaniy muammolarni tasvirlashda o'ziga xos falsafiy uslubni shakllantirdilar. Ular inson tabiatidagi qarama-qarshiliklar, iroda va axloq, shaxs va jamiyat munosabatlarini falsafiy tahlil qilishga kirishdilar. Amerika Renessansi nafaqat adabiyot va falsafa bilan cheklanib qolmadi, balki ijtimoiy harakatlar, ayniqsa abolitsionistlar (qullikka qarshi kurashuvchilar) faoliyatida ham o'z ifodasini topdi. Frederik Duglas kabi mutafakkirlar qullikka qarshi kurashda adabiyot va nutqni faol vositaga

aylantirdilar. Bu harakat inson qadri, tenglik va huquqiy adolat tushunchalarini Amerika fuqarolik ideologiyasining markaziy nuqtasiga olib chiqdi.

Falsafiy jihatdan Amerika Renessansi “aql va ruh uygʻonishi” sifatida baholanadi. Unda inson ongining erkinligi, maʼnaviy erkinlik, shaxsiy masʼuliyat va tabiat bilan uygʻunlik kabi gʻoyalar hukmronlik qildi. Bu renessans jarayoni AQShda sekulyar, demokratiyaviy va gumanistik qadriyatlarga asoslangan fuqarolik jamiyatini shakllantirishga olib keldi. Xulosa qilib aytganda, Amerika Renessansi – bu yangi dunyoviy sivilizatsiyaning shakllanishi, milliy oʻzlik va intellektual erkinlikning tantanasi boʻldi. Unda falsafa, adabiyot, sanʼat va ijtimoiy harakatlar bir-biriga uygʻun tarzda taʼsir koʻrsatib, zamonaviy Amerika ongining shakllanishiga asos soldi. Bu uygʻonish inson qadri, shaxsiy salohiyat va tabiiy adolat gʻoyalarining yangi davrdagi qayta kashf etilishi boʻldi.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy Sharq sivilizatsiyalari (Hindiston, Arab renessansi va Xitoy) taraqqiyot modellarining ijtimoiy-falsafiy tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida Hindiston, Xitoy va Arab davlatlarida yuz bergan milliy uygʻonish harakatlari yoritib berilgan.

Ushbu bobning **“Hindistonda milliy uygʻonish va uning maʼrifiy xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi paragrafida taʼkidlaganidek, XIX–XX asrlar davomida Hindistonda yuz bergan milliy uygʻonish jarayoni nafaqat siyosiy mustaqillik harakati, balki falsafiy-maʼnaviy qayta tiklanish va zamonaviy oʻzlikni shakllantirish jarayoni ham boʻldi. Bu uygʻonish Hind jamiyatini mustamlaka ostidagi tor doiradan chiqarib, global gʻoyaviy jarayonlarga uygʻunlashtirish, oʻziga xos sivilizatsion maqomini qayta kashf etishga qaratilgan harakat sifatida yuzaga chiqdi. Ushbu uygʻonishning tarixiy-falsafiy mohiyati xalq ongining yangilanishi, milliy gʻurur va maʼnaviy tafakkur tiklanishi bilan belgilanadi.

Hind milliy uygʻonishi bir nechta yoʻnalishda namoyon boʻldi. Birinchisi – madaniy-maʼnaviy uygʻonish boʻlib, bu jarayonda qadimgi veda falsafasi, induizm, buddizm va sufiylik elementlari qayta kashf etildi. Hind mutafakkirlari gʻarb maʼrifati va ilmiy yutuqlarini oʻz milliy-madaniy muhitida qayta talqin qilishga harakat qildilar. Misol uchun, Ramakrishna va Vivekananda diniy irfoniyatni insonning ichki ruhiy kamoloti va ijtimoiy faollik bilan bogʻladilar. Ular diniy bagʻrikenglik, birdamlik, maʼnaviy tozalik gʻoyalarini umuminsoniy mezon darajasiga koʻtardilar. Ikkinchi yoʻnalish – ijtimoiy islohot va siyosiy ong uygʻonishi. Ram Moxan Roy, Ishvar Chandra Vidyasagar va Dayanand Sarasvati kabi islohotchilar induizmdagi tanqidiy nuqsonlarni fosh qilar ekanlar, bir vaqtning oʻzida jamiyatda ayollar huquqlari, taʼlim va ijtimoiy tenglikni targʻib qildilar. Bu harakatlar natijasida fuqarolik faolligi kuchaydi, milliy shaxsiyatning yangi modeli shakllandi. Xususan, Bengal uygʻonishi (Bengal Renaissance) Hind milliy uygʻonishida intellektual poydevor sifatida namoyon boʻldi. Uchinchi yoʻnalish – siyosiy harakatchilik va mustaqillik gʻoyasi. XX asr boshlarida Maxatma Gandi milliy uygʻonishni faqat siyosiy emas, balki maʼnaviy masala deb qaradi. Uning “Satyagraxa” (haqiqatga intilish) va “aximsa” (zoʻravonliksiz) gʻoyalari Hind tafakkurini mutlaq yangicha bosqichga olib chiqdi. Gandi oʻz

falsafasida diniy, etik va fuqarolik prinsiplarini birlashtirib, mustamlakachilikka qarshi kurashni jamiyatning ma'naviy uyg'onishi bilan bog'ladi.

Bu uyg'onish jarayonlarida Hindistonning sharq va g'arb orasidagi mediatorlik o'rni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, g'arb tafakkuri, ilm-fani va sekulyar institutlari o'zlashtirildi; ikkinchi tomondan, sharq irfoni va madaniy merosi qayta tiklandi. Bu sintez jarayonida Tagor, Aurobindo, Radhakrishnan singari mutafakkirlar global falsafiy miqyosda tan olingan. Ular inson tabiati, ong, axloq va jamiyat tuzilishi haqidagi g'oyalarni milliy nuqtai nazardan baholab, g'arb falsafasi bilan muloqotga kiritdilar.

Hind milliy uyg'onishi – bu shunchaki mustamlakachilikka qarshi kurash emas, balki milliy ongni qayta shakllantirish, insoniy qadriyatlarni global ilmiy-ma'rifiy mezonlar bilan uyg'unlashtirish harakatidir. Bu uyg'onish inson qadri, axloqiy mas'uliyat, diniy bag'rikenglik, fuqarolik pozitsiyasi va ma'naviy barqarorlik kabi universal qadriyatlar asosida shakllangan. Ushbu jarayon Hindistonning hozirgi demokratik, sekulyar va intellektual yuzini belgilagan mustahkam asosga aylandi.

Uchinchi bobning **“XIX-XX asrlarda Arab renessansi – madaniy va intellektual uyg'onish”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida XIX–XX asrlar arab dunyosi tarixida “Nahda” (ya'ni “uyg'onish”) deb nomlangan ma'naviy, madaniy va ilmiy rivojlanish davri xususida fikr yuritiladi. Bu harakat – arab jamiyatlarining Yevropa mustamlakachiligi, taassub va stagnatsiyaga (qo'zg'almas, turib qolgan, turg'unlik holati) qarshi intellektual va ma'naviy javobi sifatida paydo bo'ldi. U faqat siyosiy emas, balki falsafiy-ma'rifiy uyg'onish, din va aql, an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi muvozanatni topishga urinish sifatida namoyon bo'ldi.

Nahda harakatining yuzaga kelishiga bir necha omillar ta'sir etdi:

- Yevropadagi Uyg'onish va ma'rifat davrlarining ta'siri;
- Fransiyaning Misrni bosib olishi orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy muloqotning faollashuvi (1798–1801);
- chop etish va matbaa madaniyatining arab olamida tarqalishi;
- turkiy usmonli merosining so'nishi va yangi intellektual echimlarga ehtiyoj.

Bu uyg'onish avvalo Misr va Suriya mintaqalarida faol boshlandi. Rifaa at-Tahtaviy Fransiyada ta'lim olgan ilk arab mutafakkirlaridan bo'lib, “ma'rifatni din bilan uyg'unlashtirish” g'oyasini ilgari surdi. Uning “Talxis al-Ibriz” asari arab dunyosida g'arb ilmining afzalliklarini tan olish, lekin milliy va diniy qadriyatlardan voz kechmasdan, aql va tafakkurni ilgari surishga chaqiruv bo'ldi. U zamonaviy ta'lim, huquq va erkinlik g'oyalarini sharq an'analari bilan uyg'un tarzda talqin etdi.

Nahda falsafiy qarashlarining markazida inson, uning ongi va mas'uliyati turdi. Muhammad Abduh va Jamoliddin al-Afg'oniy kabi islohotchi ulamolar islomni aqlga muvofiqlik asosida zamonaviy sharoitda qayta tushunishga urinib, diniy dogmatizmga qarshi chiqdilar. Ular Qur'on ta'limotini ijtimoiy adolat, fan,

ma'rifat va taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'unlashtirishga intilishdi. Bu qarashlar "islomiy modernizm" deb ataluvchi oqimning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Nahdaning adabiy yo'nalishida Al-Bustoni, Jubron Xalil Jubron, Ahmad Shavqiy, Taxa Husayn singari yozuvchilar va shoirlar faol bo'lib, ular adabiyotni ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi vositaga aylantirdilar. Jubron o'z asarlarida inson ozodligi, ishqiy va ruhiy kamolotni falsafiy va she'riy tarzda ifoda etdi. Taxa Husayn esa, ta'lim va ilmni islom dunyosi taraqqiyotining asosiy yo'nalishi sifatida ko'rdi.

Nahda harakati bugungi kun uchun ham muhim falsafiy saboqlar bilan boy. U an'anaviylik va zamonaviylik, din va fan, sharq va g'arb, millat va ummat tushunchalarini to'qnashtirgan holda, arab dunyosidagi umuminsoniy rivojlanish salohiyatini ochib berdi. Bu jarayon "bir xalq qanday qilib o'z o'zligini yo'qotmasdan, zamon bilan hamqadam bo'lishi mumkin?" degan tarixiy-falsafiy savolga javob izlagan harakat sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, Nahda – bu Sharq falsafasiga xos ilmiy qayta uyg'unlash, insoniy qadriyatlarning tiklanishi va modern tafakkurga asoslangan jamiyat barpo etishga urinishdir. Uning asosiy g'oyasi: dinni aql bilan uyg'unlashtirish, ilmiy bilimni faol hayotning markaziga qo'yish va insonni faol ijtimoiy subyekt sifatida tarbiyalashdan iborat bo'ldi. Nahda arab dunyosi uchun faqat o'tmish emas, balki kelajakni shakllantiruvchi ruhiy va falsafiy manba hamdir.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi **"Xitoy zamonaviy taraqqiyot modelining ijtimoiy-falsafiy tahlili"** deb nomlanib, Xitoy XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyo miqyosida eng samarali va o'ziga xos taraqqiyot modelini namoyon etgani yoritib berilgan. Bu model Sharq an'analari, sotsialistik g'oyalar va bozor mexanizmlarining o'ziga xos uyg'unlashuvi asosida shakllandi.

1978-yilda Den Syaopin boshchiligida boshlangan "ochiq eshik" siyosati Xitoyni izchil iqtisodiy islohotlar yo'liga olib kirdi. Bu islohotlar doirasida mamlakatda xususiy mulk, tashqi investitsiyalar va eksportga yo'naltirilgan sanoat keng rivojlandi. Biroq Xitoy hukumat tuzilmalarida davlatning rahbarlik rolini saqlab qolgan holda, iqtisodiy erkinlik va siyosiy barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minladi. Falsafiy nuqtai nazardan Xitoy taraqqiyot modeli konfutsiylik, kollektivizm va milliy manfaatni ustuvor qo'yish kabi qadriyatlarga tayangan. "Xitoy orzusi" tushunchasi orqali xalqni bir maqsad atrofida birlashtirish, ijtimoiy barqarorlik va uzoq muddatli strategiyalar asosida harakat qilish ta'minlandi.

Xitoydagi model inson kapitalini rivojlantirish, innovatsiya, texnologiya, ta'lim va infratuzilmani strategik darajada qo'llab-quvvatlashga tayanadi. Shu bilan birga, u G'arbdagi liberal demokratiya modelidan farqli ravishda, milliy istiqbol va ichki barqarorlikni birinchi o'ringa qo'yadi.

Xitoy Uyg'unlash davri nafaqat madaniy merosning qayta tiklanishini, balki boshqa mamlakatlar o'rnak olishga intilishi mumkin bo'lgan zamonaviy rivojlanishning yangicha modelini ham ifodalaydi. Xitoy an'anaviy qadriyatlarni zamonaviy amaliyotlar bilan uyg'unlashtirish orqali tarixiy ong va innovatsiya

o‘rtasidagi kuchli hamkorlikni namoyon etmoqda. Bu madaniy va iqtisodiy dinamizm globallashtirish sharoitida samarali boshqaruv va strategik rejalashtirish milliy tiklanishni qanday tezlashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Pirovardida, Xitoy Uyg‘onish davri merosni taraqqiyot bilan muvozanatlashda muhim saboqlar beradi va butun dunyo bo‘ylab rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq vazifasini o‘taydi.

Xulosa qilib aytganda, Xitoyning zamonaviy taraqqiyot modeli – bu milliy an‘analarni zamonaviy institutlar bilan uyg‘unlashtirgan, davlat rahbarligini ta‘minlagan va global raqobatga barcha sohalarida tayyor bo‘lgan muvaffaqiyatli o‘zgarishlar tizimidir.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy masalalari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida Renessans fenomeniga respublikamiz fan doktorlari va professor olimlari tomonidan berilgan ijtimoiy-falsafiy ta‘rif va mulohazalar tahlil qilinib, mutaxassisning yondashuvi orqali Renessans jarayonining faqat tarixiy emas, balki mafkuraviy, ma‘naviy va istiqboliy ahamiyati keng yoritilgan. Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessansni amalga oshirish muammolari, milliy uyg‘onishning institutsional, ma‘naviy va fuqarolik poydevori, jamiyatda ilmiy tafakkur va ma‘rifatparvarlikni qaror toptirish zarurati nazariy va amaliy jihatdan ochib berilgan.

Ushbu bobning **“Renessansning ijtimoiy-falsafiy mohiyati ekspertlar nigohida”** deb nomlangan birinchi paragrafida Renessans – bu shunchaki tarixiy davr emas, balki inson ongi, ijtimoiy tuzum va falsafiy dunyoqarashdagi yuksalish, yangilanish jarayonidir. Uning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini teran anglash uchun faqat tarixiy ma‘lumotlar emas, balki mutaxassislar, olimlar va falsafiy maktablar nuqtai nazarini ham hisobga olish zarur.

Ekspertlar ta‘kidlaganidek, Renessans – bu inson markaziy qimmatlik sifatida namoyon bo‘lgan davrdir. Unda shaxsning aqliy salohiyati, erkin irodasi va ijtimoiy faolligi falsafiy tahlil ob‘yektiga aylandi. Bu jarayon individualizmni, gumanizmni va fuqarolik ongini yuksaltirdi. G‘arbda Uyg‘onish davrida ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar orqali davlat va jamiyat munosabatlari qayta ko‘rib chiqildi.

Mutaxassislar fikricha, har bir xalq va madaniyatda Renessans turlicha namoyon bo‘lgan: Yevropa sivilizatsiyasida – antik merosni qayta tiklash, Sharqda – tasavvufiy-ma‘rifiy yuksalish, Markaziy Osiyoda – ilm-fan va axloq uyg‘unligida. Shu bois, Renessans umuminsoniy qadriyatlar tiklanishiga xizmat qiluvchi tarixiy va intellektual bosqich sifatida baholanadi.

Bugungi kunda ekspertlar yangi Uyg‘onish zarurati haqida so‘z yuritar ekan, bu jarayonning asosiy mezonini – insoniy qadriyatlar, ma‘rifat, ilm va madaniyatni markazga qo‘yishdan iborat, deb ta‘kidlashmoqda. Demak, Renessans – bu faqat o‘tmish emas, balki istiqbolni shakllantiruvchi falsafiy dastur hamdir.

To‘rtinchi bobning **“O‘zbekistonda Uchinchi Renessansning iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillari”** nomli ikkinchi paragrafida O‘zbekistonda Uchinchi Renessans davrini barpo etish g‘oyasi iqtisodiy, siyosiy va madaniy asoslari bilan atroflicha yoritilgan. Tahlilda ta‘kidlaganidek, bu g‘oya subyektiv

emas, balki xalqimizning asriy orzulari va tarixiy tajribasiga asoslangan obyektiv zaruratdir.

Birinchidan, iqtisodiy omillar qatorida iqtisodiyotni erkinlashtirish, investitsion muhitni yaxshilash, zamonaviy sanoat va infratuzilmani shakllantirish, tashqi bozorlar bilan integratsiya jarayonlari ta'riflanadi. Iqtisodiy o'sish natijasida ta'lim, fan, innovatsiyalarga sarmoya yo'naltirish imkoniyatlari kengayayotgani ta'kidlanadi.

Ikkinchidan, siyosiy islohotlar mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, adolatli sud-huquq tizimini barpo etish, davlat va jamiyat munosabatlarini yangilash, qonun ustuvorligini ta'minlash kabi masalalarda ifodalanadi. Xalq va davlat o'rtasidagi masofaning qisqarishi, ochiq muhokama va fuqarolar faolligining oshishi siyosiy barqarorlik poydevorini yaratayotgani ko'rsatiladi.

Uchinchidan, madaniy-ma'naviy yuksalish jamiyat tafakkurini o'zgartirish, milliy o'zlikni anglash, ma'rifat va gumanistik g'oyalarni avlodlar ongiga singdirish orqali Uchinchi Renessansning ma'naviy poydevori mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Islom sivilizatsiyasi, Yevropa Uyg'onishi va Temuriylar davri bilan o'xshashliklar qiyosiy tahlil qilinadi.

Shuningdek, ta'lim va fanning markaziy o'rin tutgani, innovatsiyalar, axloqiy kamolot, media vositalarining ta'siri, yoshlarning intellektual faolligi va tanqidiy fikrlash qobiliyati ham alohida ta'kidlanadi. Uchinchi Renessans jamiyatning barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar ishtirokida shakllanayotgan yangi ma'naviy-mafkuraviy tuzilma ekanligi, u tarixiy merosni tiklash bilan birga, kelajak jamiyatining falsafiy asoslarini yaratish jarayoni ekani qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Uchinchi Renessans – bu faqatgina modernizatsiya emas, balki jamiyat tafakkuridagi, davlat boshqaruvidagi, madaniyat va ma'naviyatdagi tub o'zgarishlarni anglatuvchi falsafiy jarayondir. U inson qadri, bilim, ijtimoiy adolat va madaniy meros uyg'unligiga asoslangan yangi taraqqiyot paradigmasini vujudga keltirmoqda.

To'rtinchi bobning uchinchi paragrafi **“O'zbekistonda Uchinchi Renessans istiqbollari: ijtimoiy-falsafiy tahlil”** deb nomlanadi. Dissertant O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davri – Renessansga beshik bo'lganligini, Birinchi Renessans omillari – barqaror davlatchilik, iqtisodiy yuksalish, ilm-u ma'rifatga intilish va bag'rikeng ma'naviy muhit, Ikkinchi – Temuriylar uyg'onishi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fanni qo'llab-quvvatlash va milliy-ma'naviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish natijasida yuzaga kelganligini ta'kidlaydi. Birinchi va Ikkinchi uyg'onish saboqlari shuni ko'rsatadiki, har qanday rivojlanish uyg'onishga aylanishi uchun bir paytning o'zida qator shart-sharoitlar mavjud bo'lishi kerak. Jumladan, mustahkam va adolatli davlatchilik, iqtisodiy farovonlik, ilm-ma'rifatga hurmat va keng ma'naviy muhit – bular uyg'onish davrlarining asosiy poydevori bo'lgan.

Har qanday uyg'onish davrining asosida ilm-ma'rifat yotadi. Ta'lim sohasiga e'tibor barcha yuksalishlarning bosh omili sifatida qaralishi tarixiy va zamonaviy tajriba bilan isbotlangan. Falsafa fanlari doktori, professor J.Ramatov

ta'kidlaganidek, "Chunki har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga etishi hal qiluvchi o'rin tutadi"⁵. Mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalaridan ma'lum bo'lishicha, javob beruvchilarning 50% tarixiy renessanslarni boshlab beruvchi eng muhim omil sifatida aynan "ta'lim va ilmiy taraqqiyot"ni belgilaganlar. Bugungi kunda O'zbekiston sharoitida ham uchinchi Renessans uchun eng ustuvor yo'nalish sifatida ta'lim-tarbiya sohasi qayd etilgani bejiz emas – ekspertlarning salmoqli qismi zamonaviy uyg'onishning poydevori ilmi va tarbiyali avlodni shakllantirishda deb hisoblamoqda. Prezidentimiz ilgari surgan yangi taraqqiyot strategiyasida ham ta'lim va tarbiya Uchinchi Renessans poydevori ekanligi alohida ta'kidlangan.

Tarixiy renessanslarga nazar tashlasak, ularning barchasida ta'lim rivoji markaziy o'rin tutadi. Markaziy Osiyoning ilk uyg'onish davrida Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda oliy darajadagi madrasalar, kutubxonalar tashkil etilib, ular ilm tarqatishga xizmat qilgan. Ikkinchi uyg'onish – Temuriylar davrida – davlat homiyligida ilm maskanlari va maktablar ko'paygan, Ulug'bekning madrasasi o'z davridagi ilg'or akademiya edi. Yevropa uyg'onishi davrida esa, gumanistik ta'lim taraqqiy etib, qadimgi an'analar o'rganilishi bilan birga yangi universitetlar va ilmiy jamiyatlar paydo bo'ldi. Yaponiyada Meydzi islohotlari doirasida xalq ta'limi umumiy majburiylikka o'tkazilib, G'arb ilmini o'zlashtirish uchun minglab yoshlar xorijga o'qishga yuborildi, mamlakatda esa yangi turdagi maktablar ochildi – bu Yaponiyaning keyingi muvaffaqiyatiga zamin yaratgan edi. Demak, O'zbekistonda uchinchi Renessansga erishish birinchi navbatda ta'lim sohasidagi izchil islohotlarga tayanadi. Maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan tizimda sifat va samaradorlikni oshirish strategik vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, uchinchi Renessans g'oyasi – O'zbekistonning kelajak avlodlari uchun bag'ishlayotgan ulug' g'oyasidir. Unga erishish yo'li mashaqqatli, biroq tarix saboqlari va zamonaviy tajribalar bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatib turibdi. Eng muhimi, birdamlikda, ilm va ma'naviyat bayrog'ini baland ko'targan holda olg'a yursak, ko'zlagan uyg'onish zamoni albatta ravnaq topadi.

XULOSA

"Renessans fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyati" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi (DSc) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Renessans – insoniyat taraqqiyotining universal falsafiy fenomeni sifatida, faqat madaniy qayta tiklanish emas, balki inson qadri, erkin tafakkur, ma'rifiy taraqqiyot va ijtimoiy adolat g'oyalariga asoslangan sivilizatsion uyg'onish ekanligi asoslab berilgan. Bu falsafiy jarayon tarixiy-madaniy davriylikka emas, balki ijtimoiy ong va insoniy tafakkur darajasiga bog'liq jarayondir.

⁵ Раматов Ж. Баркамол ва соғлом авлод – Ўзбекистон келажaginiнг пойдевори // Academic research in educational sciences. – № 2. – 2021. – Б. 226.

2. Ilk va Ikkinchi uygʻonish – Sharq falsafiy merosining tiklanishi va shakllanishidir. Markaziy Osiyodagi uygʻonish davrlari (Farobiy, Ibn Sino, Ulugʻbeklar faoliyati misolida) jahon fani va axloqiy-monandlik taraqqiyotiga beqiyos hissa qoʻshgan. Bu jarayon jamiyatning fikriy-ilmiy salohiyatini oshirish orqali insoniylikni yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

3. Yevropa va Amerika uygʻonishi – fuqarolik tafakkuri va ratsional ong yuksalishining namunasi sifatida gumanizm, empirizm, erkinlik va inson huquqlari falsafasi bu uygʻonishlarda markaziy oʻrinni egallab, jamiyatda ongli shaxsni shakllantirishga xizmat qilgan. Amerika uygʻonishi tabiatga bagʻrikenglik va fuqarolik javobgarligi orqali uygʻonishning yangi modelini taklif etgan.

4. Arab, Hindiston va Xitoy uygʻonishlari – Sharq rivojlanish yoʻlining falsafiy ifodasidir. Bu uygʻonishlar mustamlakachilikka qarshi maʼnaviy kurash, qadimiy anʼanalarni saqlash va modernizatsiyaga adaptatsiyalashuv vositasida insonni taraqqiyotning markaziga qoʻygan. Milliy ruh va global tahliliy ongning uygʻunligi taʼlim, siyosat va falsafada yangilik yaratish imkonini bergan.

5. Renessansning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillari – davlat siyosati, taʼlim strategiyalari, axloqiy muhit, fuqarolik faolligi va ijtimoiy institutlarning oʻzaro munosabati boʻlib, Renessansni koʻp tarmoqli ijtimoiy jarayon sifatida baholash mumkin.

6. Uchinchi Renessans – Yangi Oʻzbekistondagi maʼrifiy-falsafiy uygʻonishning strategiyasi sifatida talqin etilib, inson kapitalini rivojlantirish, ilmiy salohiyatni kengaytirish, milliy qadriyatlarni global axborot muhitida saqlash – bugungi Oʻzbekistonda Renessans gʻoyasini amalga oshirishning zamonaviy asoslaridir. Bu falsafiy konsepsiya jamiyatning komillik sari harakatini anglatadi.

7. Maʼrifat va maʼnaviyat – uygʻonish jarayonining markaziy gʻoyaviy oʻzagi ekanligi, har qanday uygʻonish, avvalambor, maʼnaviy poklik, ilmga intilish va maʼrifatga boʻlgan ehtiyoj orqali shakllanishi ayon boʻldi. Uygʻonish faqat fan emas, balki axloq va qalbning faollashuvi orqali amalga oshadi.

8. Inson – uygʻonish jarayonining falsafiy va ijtimoiy subyekti sifatida dissertatsiyada inson faqat ijtimoiy obyekt emas, balki maʼnaviy etakchi, erkin fikrlovchi, ijtimoiy oʻzgarishlarga taʼsir etuvchi shaxs ekanligi asoslangan. Inson qadri va uning maʼrifatga intiluvchanligi uygʻonish jarayonining bosh manbaidir.

9. Milliy va global tajribalar uygʻunligi – yangi sivilizatsion falsafa asosi degan paradigmal yondashuv Renessans jarayonida ichki qadriyatlar va tashqi taʼsirlar uygʻunligi falsafiy fikrlashning chuqurlashuviga xizmat qilishini tushuntirib beradi. Bu falsafa jahon tafakkurining integratsiyalashuvini anglatadi.

10. Renessans – jamiyatni qayta shakllantiruvchi falsafiy muvaffaqiyat modeli, shaxsiyat, taʼlim, falsafa va institutlar uygʻunligi asosida jamiyatni maʼrifat orqali komillikka etaklovchi sifatida asoslangan. Bu faqat oʻtmishga emas, balki kelajak taraqqiyotiga qaratilgan falsafiy daʼvatdir.

**TADQIQOT NATIJASIDA QUYIDAGI TAKLIF VA TAVSIYALAR
ISHLAB CHIQLDI:**

1. Ilm-fan va ta'limni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, ta'lim tizimida global innovatsion yondashuvlar bilan bir qatorda, ilk Renessans davridagi Sharq allomalarining ilm-fanga qo'shgan hissasi, milliy an'analar va axloqiy merosni integratsiya qilish orqali milliy ruhni saqlagan holda zamonaviy bilim muhitini shakllantirish zarur.

2. Falsafiy va gumanitar bilimlarni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirish – insonparvarlik, ma'naviy erkinlik va fuqarolik javobgarligidir. Shuning uchun maktab va oliy ta'limda falsafa, tarix, estetika, axloqshunoslik fanlarini chuqur va amaliy ravishda o'qitishni kuchaytirish zarur.

3. Ilmiy va ijodiy elita faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha institutsional mexanizmlar yaratish orqali fan doktorlari, yozuvchi va ziyolilarning ilmiy-ma'rifiy va axloqiy-mustaqil faoliyatini rag'batlantiruvchi maxsus grantlar, stipendiyalar, ilmiy markazlar hamda "Renessans markazlari" tashkil etish orqali intellektual muhitni barqarorlashtirish lozim.

4. "Kamil inson" konsepsiyasini milliy rivojlanish strategiyasiga tatbiq etish orqali Renessans insonni jamiyat markaziga qo'yadi. Shunga mos ravishda, shaxsiy salohiyatni rivojlantirish, axloqiy tarbiya, shaxs erkinligi va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtiruvchi falsafiy-konseptual dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

5. Media va axborot maydonida ma'naviy immunitetni shakllantirish axborot makonidagi g'arbcha modernizmi faqat taqlidiy qabul qilish emas, balki milliy o'zlik va ma'rifatni himoya qiluvchi intellektual media kontent, zamonaviy formatdagi "renessans siymosi"ni yaratuvchi platformalarni rivojlantirish zaruratini vujudga keltirmoqda.

6. Yoshlarda ilmiy-ma'rifiy faollik va innovatsion dunyoqarashni shakllantirish orqali fan va texnologiyalar bilan ma'rifatparvarlikni uyg'unlashtirish maqsadida "Yoshlar Renessansi" tashabbuslarini yo'lga qo'yish, talabalar va tadqiqotchilar uchun alohida motivatsion loyihalar, olimpiadalar, startap-grantlar va davlat dasturlarini kuchaytirish kerak.

7. "Uchinchi Renessans" milliy dasturini qabul qilish, Renessans konsepsiyasi faqat ma'rifiy yoki ramziy shior bo'lib qolmasligi uchun uni davlatning uzoq muddatli strategiyasiga aylantirish maqsadida ta'lim, fan, axloq, fuqarolik jamiyati va boshqa sohalarni qamrab olgan "Uchinchi Renessans – 2030" milliy dasturi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ
СТЕПЕНИ ДОКТОРА НАУК (DSc) НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

ПАРПИЕВ МУХАММАДЖОН ТАЛИБОВИЧ

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУТЬ ФЕНОМЕНА ВОЗРОЖДЕНИЯ

09.00.04 – Социальная философия

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философских наук (DSc)**

Наманган – 2025

Тема диссертации на соискание степени доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.DSc/Fal179

Диссертация выполнена в Андижанский государственный педагогический институт.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (namdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Эгамбердиев Азизбек Абдумаликович
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Назарова Киёмиддина Нормирзаевич
доктор философских наук, профессор

Хакимов Назар Хакимович
доктор философских наук, профессор

Замилова Римма Рамильевна
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация: Чирчикский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится на заседании Разового Научного совета по присуждению учёной степени доктора наук (DSc) на базе Научного совета по присуждению ученых степеней (PhD) при Наманганском государственном университете за номером PhD.03/30.04.2021.F.76.06 «__» _____ 2025 года в __ часов (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бобуршох, дом 161, здание факультета социальных наук Наманганского государственного университета, 1 этаж, кабинет 101. Тел./факс: (998-69) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бобуршох, дом 161. Здание ИРЦ). Тел./факс: (998-69) 228-85-02.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 г.
(реестр протокола рассылки № ____ от «__» _____ 2025 г.

Р.Т.Жураев

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор политических наук (DSc), профессор

К.О.Махкамов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии социологических наук (PhD), доцент

М.И.Исмоилов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Феномен Ренессанса имеет особое значение и необходимость в решении современных социальных проблем, происходящих в мире, и обеспечении устойчивого развития. Это явление исторически известно как период культурно-интеллектуального возрождения, придавшего новый дух и смысл человеческому мышлению, духовности, научно-социальным процессам. На фоне сегодняшних глобальных проблем – социального неравенства, невежества, идеологического вакуума, загрязнения окружающей среды, морального кризиса, духовной пустоты среди молодежи — идеи Ренессанса приобретают все большую актуальность. Прежде всего, Ренессанс превращает образование и науку в основной фундамент общества. Даже на ранних этапах, например, в период европейского Возрождения, развитие общества обеспечивалось свободой человеческого разума и способностью к критическому мышлению. В современном информационном обществе критическое мышление и научные знания становятся важным инструментом защиты людей от манипуляций и ложных идеологий. Образовательные реформы в духе Ренессанса должны быть направлены на воспитание грамотных, социально ответственных, духовно развитых личностей для обеспечения устойчивого развития.

Взгляды эпохи Возрождения также важны для преодоления современных культурных противоречий и религиозных конфликтов, наблюдаемых в мире, и укрепления сотрудничества между цивилизациями, предлагая толерантное, открытое и основанное на диалоге мировоззрение. Ренессанс базируется на принципах гуманности и гуманизма. Проблема беженцев в современном мире, расовая и этническая вражда, гендерное неравенство и дискриминация – это проблемы, попирающие человеческое достоинство. Ренессанс ставит человека в центр бытия, признает его разум, права, волю и свободное творчество. В этом смысле Ренессанс XXI века — это воплощение в жизнь идеи возвеличивания человеческого достоинства и рассмотрения его как центральной точки всех политических, экономических и культурных процессов. Ренессанс продвигает идею культурного диалога и цивилизационной толерантности. Все периоды развития в истории человечества происходили благодаря взаимосвязи и влиянию различных культур. Например, в арабском Возрождении (Нахда) западные научные идеи гармонично сочетались с восточной философией, а в японской революции Мэйдзи западное образование и технологии были синтезированы с национальными ценностями.

В Узбекистане ядром Третьего Ренессанса считаются нравственность и духовность, а одним из основных условий развития общества – просвещение. Коррупция в современном обществе, духовный кризис, снижение уважения к законности среди молодежи – в основе всех этих проблем лежит невежество. Просвещение в духе Ренессанса формирует у человека не только знания, но и ответственность и духовную зрелость. Благодаря этому духовному возрождению человек осознает свой долг и ответственность перед

обществом. Вед "в мире человечества ест великий светоч – светилник духовности. Отличие этого светилника от других заключается в том, что он освещает сознание и мышление человека, пробуждает его сердце и совесть, усиливает чувство человечности. Поскольку мы приступили к созданию новой эпохи возрождения Узбекистана, в сердце и сознании каждого нашего соотечественника должен сиять такой духовный свет, который побуждает нас к добрым делам и призывает жить с чувством высокой ответственности." Устойчивое развитие определяется не только экономическим ростом, но и человеческим капиталом, духовной средой и социальной стабильностью. В целях устойчивого развития ООН образование, равенство, здоровая среда, мир и справедливость также определены в качестве приоритетных направлений. Ренессанс – это всеобъемлющая форма культурно-просветительского мышления, способствующая достижению этих целей. Это духовное движение, стимулирующее пробуждение разума и сердца, обеспечивающее всестороннее устойчивое развитие человечества. Ренессанс – это не исторический этап, а современная модель социально-духовного пробуждения, нравственного подъема и интеллектуального развития. Он подчеркивает необходимость не только технических решений, но и духовно-интеллектуального подхода к проблемам современного мира. Для устойчивого развития в мировом масштабе сегодня Узбекистан должен пережить эпоху "Третьего Ренессанса" – в этот период человек и человечность должны быть заново открыты как приоритетные ценности, духовный и культурный дух должен стать основной опорой общества. Только тогда человечество сможет двигаться к истинному развитию и стабильности.

Данная диссертация в определенной степени служит реализации задач, установленных в Законе Республики Узбекистан "Об образовании" от 23 сентября 2020 года, Указе Президента Республики Узбекистан No УП-158 от 11 сентября 2023 года "О Стратегии "Узбекистан — 2030," Постановлении Президента Республики Узбекистан No ПП-5040 от 26 марта 2021 года "О коренном совершенствовании системы духовно-просветительской работы," Постановлении Президента Республики Узбекистан No ПП-4307 от 3 мая 2019 года "О дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы," Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан No 340 от 3 июня 2021 года "Об организации деятельности Института социально-духовных исследований при Республиканском центре духовности и просветительства," Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан No 1059 от 31 декабря 2019 года "Об утверждении Концепции непрерывного духовного воспитания и мерах по ее реализации," а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной теме.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I развития науки и технологий

республики "Формирование системы инновационных идей информационного общества и демократического государства в социальной, правовой, экономической сферах и пути их реализации."

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Исследования феномена Ренессанса, проводимые в ведущих мировых научно-исследовательских институтах и центрах, представляют собой не только изучение исторической или культурной среды, но и всеобъемлющий философский процесс, направленный на исследование человеческого разума, социального прогресса, морали, идеологического возрождения и переосмысления ценности человека. С этой целью различные университеты и научные центры современного мира изучают Ренессанс не только как исторический этап, но и как систему мышления, способствующую решению современных социальных проблем. Например, Вилла I Татти – центр Гарвардского университета, посвященный итальянскому Возрождению и расположенный во Флоренции – анализирует, как этот период преобразовал человеческое поведение и нравственные ценности, наряду с углубленным изучением научного, литературного и культурного наследия эпохи Возрождения. Исследования, проводимые в этом центре, тесно связаны с идеями помещения человека в центр бытия, продвижения его творческого, духовного и интеллектуального потенциала. С социально-философской точки зрения это отражает процесс стремления к устойчивому развитию через понимание истории, культуры и просветительского духа человека.

Центры Centre d'Études Supérieures de la Renaissance в городе Тур, Франция, и Институт Варбурга в Лондоне также специализируются на анализе духовных и эстетических аспектов Ренессанса с исторической и философской глубиной. Их исследования направлены не только на изучение искусства или философии, но и на изучение того, какую роль играет человек в системе социальных отношений, какая новая концепция жизни формируется через пробуждение разума и сердца. Эти центры продвигают возрождение таких ценностей, как самопознание человека, внутренняя свобода и интеллектуальная независимость.

В то же время такие американские исследовательские центры, как ACMRS при Университете штата Аризона, Центр ранних глобальных исследований в Калифорнийском университете Лос-Анджелеса (UCLA) и MEMS при Стэнфордском университете, изучают Ренессанс в глобальном масштабе, то есть в связи с культурой, философией и социальным опытом различных народов. Например, в рамках программы Race4Race анализируются процессы формирования расовых отношений, идей равенства и прав человека в эпоху Возрождения. Это служит решению таких вопросов современного общества, как социальная справедливость, благополучие и солидарность, на философско-просветительской основе.

Другой важный центр – Центр Illuminare при Католическом университете Лёвена – проводит эстетико-философский анализ искусства Ренессанса, стремления человека к свету и просвещению через знаковые

манускрипты и духовные визуальные коды. Этот центр исследует, как человеческий разум может возвышаться посредством символических образов, что служит важной теоретической основой для возрождения духовного мышления.

